

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD VA PROKURATURA IDORALARINI ISLOH QILISH JARAYONI: TARIXIY TAHLIL (1991–2021 YY.)

## ПРОЦЕСС РЕФОРМИРОВАНИЯ СУДЕБНЫХ И ПРОКУРОРСКИХ ОРГАНОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (1991-2021 ГГ.).)

## THE PROCESS OF REFORMING JUDICIAL AND PROSECUTOR'S OFFICES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS (1991-2021.)

**Batashov Inatillo Kungirovich**

*Qashqadaryo pedagogik mahorat markazi*

*Amaliy va ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrası*

*katta o‘qituvchi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida sud va prokuratura tizimini isloh qilish jarayoni tahlil qilinadi. Muallif tomonidan 1991–2021-yillar davomida amalga oshirilgan davlat siyosati uch bosqichga bo‘lib o‘rganilgan: birinchi bosqichda mustaqil sud hokimiyati va prokuratura tizimining huquqiy-nazariy asoslari yaratilishi, ikkinchi bosqichda sudlarning ixtisoslashuvi va jinoiy jazolarni liberallashtirish, uchinchi bosqichda esa sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan tub islohotlar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda me’yoriy-huquqiy hujjatlar va statistik ma’lumotlarga tayanilgan holda islohotlarning bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyillari ochib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* sud-huquq islohoti, prokuratura, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo‘jalik sudi, Sudyalar oliy kengashi, ma’muriy sudlar, sud mustaqilligi, jinoiy jazolarni liberallashtirish.

**Abstract:** This article analyzes the process of reforming the judicial and prosecutorial system in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. The state policy implemented by the author during 1991-2021 was studied in three stages: at the first stage, the creation of the legal-theoretical foundations of the independent judiciary and the prosecutor's system, at the second stage, the specialization of courts and the liberalization of criminal penalties, and at the third stage, fundamental reforms aimed at ensuring the The study reveals the principles of the gradual development of reforms, relying on regulatory and legal documents and statistical data.

**Keywords:** *judicial reform, prosecutor's office, Constitutional Court, Supreme Court, Supreme Economic Court, Supreme Council of Judges, administrative courts, judicial independence, liberalization of criminal penalties*

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, sud-huquq tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keldi. Sovet davrida sud sobiq tuzumning jazolovchi qurollaridan biri sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, uning mustaqilligi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq davlat rahbariyati oldida sud hokimiyatini davlat hokimiyatining alohida, mustaqil tarmog'iga aylantirish, uni inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi haqiqiy institutga tayyorlash vazifasi turardi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, o'tgan davr mobaynida sud va prokuratura tizimida amalga oshirilgan islohotlarni yaxlit tarixiy jarayon sifatida tahlil qilish, ularning bosqichma-bosqich rivojlanish mantiqini ochib berish nafaqat huquqshunoslik, balki tarix fani uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi 1991–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlarni davrlashtirish asosida tahlil qilish va ularning har bir bosqichiga xos xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

#### 1. Mustaqillikning dastlabki yillarida sud-prokuratura tizimining shakllanishi

Mustaqillikning ilk yillarida amalga oshirilgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri prokuratura organlarining ittifoqchi markazga qaramligiga barham berish bo'ldi. 1990-yil 31-oktabrda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining qarori bilan Bo'ritosh Mustafoyevning respublika prokurori etib tasdiqlanishi bu boradagi birinchi qadam bo'ldi. Ilk marta respublika prokurorining mamlakat oliy organi tomonidan tasdiqlanishi edi. Shundan so'ng prokuratura tizimida kadrlar siyosati, ish yuritish tili va boshqaruv tuzilmasida jiddiy o'zgarishlar boshlandi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat tarixida birinchi marta prokuraturaga alohida bob (XXIV bob) bag'ishladi, shuningdek, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyilini mustahkamladi (11-modda). Shu asosda sud hokimiyati birinchi marta mustaqil davlat hokimiyati tarmog'i sifatida tan olindi. Konstitutsiyaning XXII bobiga muvofiq sud tizimi Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sud hamda ularning quyi bo'g'inlaridan tashkil topdi.

Ushbu davrning eng muhim yutuqlaridan biri, vatan tarixida ilk bora Konstitutsiyaviy sud va Oliy xo'jalik sudining tashkil etilishi bo'ldi. Konstitutsiyaviy nazorat instituti 1990-yildagi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasidan boshlanib, 1993-yil 6-mayda qabul qilingan maxsus qonun asosida to'liq qonuniy shaklga keldi. Xo'jalik sudlari esa sovet davridagi Davlat arbitraji o'rniga 1991-yil 20-noyabrdagi qonun bilan asos solindi va keyinchalik Konstitutsiyada mustahkamlandi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1991-yilda respublika sudlari tomonidan yuz minglab fuqarolik, jinoyat va ma'muriy ishlar ko'rib chiqilgan bo'lib, sud xatolarining ancha yuqori bo'lganligi ham qayd etilgan. Shu sababli 1993-yil 2-sentabrda qabul

qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun sud tizimini tartibga soluvchi asosiy me‘yoriy hujjat sifatida muhim rol o‘ynadi.

## 2. Sudlarning ixtisoslashuvi va jinoiy jazolarni liberallashtirish davri (2001–2016)

2000-yil 14-avgustdagi Prezident farmoni hamda shu yilning dekabrda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun sud tizimida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Umumiy yurisdiksiya sudlarining jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha ixtisoslashuvi qonunan mustahkamlandi. Tajriba jahonning rivojlangan davlatlari (AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya) amaliyotidan kelib chiqqan holda joriy etildi. Natijada sudyalarning o‘z sohasini chuqurroq egallashi va ko‘rilayotgan ishlar sifatining oshishi ta‘minlandi: agar 1991-yilda bir sudya oyiga o‘rtacha 26 ta ish ko‘rgan bo‘lsa, 2000-yildan keyin bu ko‘rsatkich ancha oshdi.

Sudyalar mustaqilligini ta‘minlash borasida muhim qadam sudyalik lavozimiga nomzodlarni tavsiya etish vakolatining Adliya vazirligidan olib qo‘yilib, Prezident huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasiga topshirilishi bo‘ldi. Shuningdek, 2001-yildagi islohotlar natijasida sud hujjatlarini ijro etish vazifasi sudlar zimmasidan olib tashlandi va bu ishni maxsus departament amalga oshira boshladi sudlarni o‘ziga xos bo‘lmagan majburiyatdan ozod qildi.

Ushbu davrning yana bir muhim xususiyati jinoiy jazo siyosatining izchil liberallashtirilishi bo‘ldi. 2001-yilda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida jinoyatlar tarkibining katta qismi og‘ir bo‘lmagan toifaga o‘tkazildi, jinoyat kodeksiga yarashuv instituti kiritildi. 2005-yil 1-avgustdagi Prezident farmoni bilan o‘lim jazosi bekor qilinib, 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirdi, shu bilan bir qatorda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuraturadan sudlarga o‘tkazildi (2005-yil 8-avgustdagi farmon, 2008-yildan amalda).

Xo‘jalik sudlari faoliyatida ham 1997-yildagi yangi Xo‘jalik protsessual kodeksi qabul qilinishi bilan tadbirkorlik subyektlarining sud himoyasi kafolatlari kengaytirildi, 2005-yildan boshlab tadbirkorlarga nisbatan huquqiy ta’sir choralari faqat sud orqali qo‘llash tartibi joriy etildi. Bu o‘zgarishlar tadbirkorlik muhitini erkinlashtirish siyosatining huquqiy ta‘minoti bo‘lib xizmat qildi.

## 3. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan tub islohotlar (2017–2021)

2017-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan sud-huquq tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan yangi bosqich boshlandi. “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan ustuvor vazifalardan biri aynan qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud tizimini isloh qilish bo‘lgani bu boradagi davlat siyosatining yangi sifat darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

2017-yil 21-fevraldagi Prezident farmoni bilan bir qator tub o‘zgarishlar amalga oshirildi: sud tizimini boshqarish va sudyalarni tayinlash borasidagi vakolatlarni

mustahkamlash maqsadida Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi; sud amaliyoti birligini ta'minlash uchun Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, yagona Oliy sud tashkil topdi; vatan tarixida birinchi marta ma'muriy sudlar tizimi yaratildi; harbiy sudlar Qurolli Kuchlar tarkibidan chiqarilib, Oliy sud tizimiga o'tkazildi; xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar deb qayta nomlandi.

Sudyalar oliy kengashining tashkil etilishi (2017-yil 6-apreldagi qonun asosida) sudyalik lavozimiga tayinlash tartibini yanada demokratlashtirdi. Xalqaro andozalarga muvofiq sudyalik lavozimida bo'lishning bosqichma-bosqich muddatlari (dastlab besh yil, keyin o'n yil, so'ngra muddatsiz) joriy etildi. Shu bilan birga, sudyalar faoliyatida yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklar uchun intizomiy javobgarlik mexanizmi ham kuchaytirildi.

2018–2020-yillarda sud faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'rildi: sud qarorlarini rasmiy veb-saytda e'lon qilish tartibi joriy etildi, sud majlislarida qatnashish uchun mobil ilovalar ishlab chiqildi, sudlar faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha alohida qaror qabul qilindi (2020-yil 3-sentabr). 2020-yil 24-iyuldagi farmon bilan "bir sud bir instansiya" tamoyili joriy etilib, sud instansiyalari soni yettitadan uchtagacha qisqartirildi, bu esa sud jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga xizmat qildi.

Sudyalar mustaqilligini ta'minlash va sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida 2020-yil 7-dekabrdagi Prezident farmoni qabul qilinib, unda davlat siyosatining to'rtta asosiy yo'nalishi sudyalar faoliyatini tashqi ta'sirlardan himoya qilish, kadrlar tanlovida xolislik va shaffoflik, korrupsiyaning oldini olish tizimi hamda sudyalar malakasini oshirish belgilab berildi. Bu davrda ma'muriy sudlarning faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi: 2019–2020-yillarda ko'rilgan arizalarning qariyb 68 foizi fuqarolar foydasiga hal qilinishi davlat organlari va mansabdor shaxslar ustidan samarali sud nazoratining shakllanganligidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 1991–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi sud va prokuratura tizimi uch bosqichli tarixiy taraqqiyotni bosib o'tdi. Birinchi bosqichda mustaqil sud hokimiyatining nazariy-huquqiy asoslari yaratilib, Konstitutsiyaviy sud va Oliy xo'jalik sudi kabi yangi institutlar tashkil etildi. Ikkinchi bosqichda sudlarning ixtisoslashuvi, jinoiy jazolarning liberallashtirilishi va sud mustaqilligini kuchaytiruvchi kadrlar siyosati amalga oshirildi. Uchinchi bosqichda esa sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, ma'muriy sudlar tizimini yaratish, sud jarayonlarini raqamlashtirish va soddalashtirish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish mexanizmi shakllantirildi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davrida amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari izchil va bosqichma-bosqich xarakterga ega bo'lib, ularning har biri o'z davri talablariga mos ravishda sud hokimiyatining mustaqilligi, samaradorligi va

jamiyat ishonchini oshirishga xizmat qildi. Bu jarayonni yanada chuqur o'rganish huquqiy davlat qurilishi tarixini yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni (2000-yil 14-dekabrda) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. Toshkent, 2001. – №1-2.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // Xalq so'zi, 2017-yil 22-fevral.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/4910826>.
5. Batashov I.K. O'zbekiston Respublikasi sud va prokuratura idoralari tarixi (1991–2021 yy.): Uslubiy qo'llanma. – Qarshi: Intellect, 2025.
6. Полвонзода А.А., Абдумажидов Ғ.А. Ўзбекистонда суд ҳокимияти: ислохотлар даври. – Тошкент: Адолат, 2002.